“Роль международных организаций и программ в развитии сотрудничества в области школьного образования Центральной Азии (1991-2025 гг.)” nomli monografiya nashr etildi

Fanlar akademiyasi O’zbekistonning eng yangi tarixi masalalari bo’yicha muvofiqlashtiruvchi metodik markazi tomonidan “Роль международных организаций и программ в развитии сотрудничества в области школьного образования Центральной Азии (1991-2025 гг.)” nomli monografiya nashr etildi.

Monografiya 1991-yildan 2025-yilgacha bo‘lgan davrda Markaziy Osiyo mamlakatlarida maktab ta’limi sohasidagi hamkorlikni rivojlantirishda xalqaro tashkilotlar va dasturlarning rolini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Taqdim etilgan tadqiqotda mintaqa davlatlari bilan YuNESKO, YUNISEF, Jahon banki kabi xalqaro ta’lim muassasalari, shuningdek, ko‘p tomonlama va ikki tomonlama ta’lim tizimlarini rivojlantirish

va boshqalar o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik dinamikasi ko‘rib chiqiladi.
Markaziy Osiyo mamlakatlarida maktab ta’limini isloh qilishga ta’sir ko‘rsatgan asosiy loyiha va dasturlarga alohida e’tibor qaratildi. Xalqaro ta’lim standartlarini integratsiyalashuv jarayonida mintaqa davlatlari duch kelayotgan yutuq va muammolar tahlil qilindi. Texnik yordam, o‘qituvchilar malakasini oshirish dasturlari, innovatsion ta’lim texnologiyalarini joriy etish kabi hamkorlik shakllariga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Monografiyada qadim zamonlardan to hozirgi kungacha maktab ta’limi evolyutsiyasining tarixiy jihati ham o‘rin olgan. Umuman olganda, ushbu monografiya tadqiqotchilar, o'qituvchilar, diplomatlar, shuningdek, ta'lim sohasidagi xalqaro munosabatlar, bu holda maktab ta'limi masalalari bilan qiziqqan keng auditoriya uchun mo'ljallangan.